

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGINI O'QITISH JARAYONIDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARIDAN FOYDALANISH IJTIMOIY ZARURAT SIFATIDA

Avazova Durdona Erkinovna

Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang'ich ta'lim fakulteti "Boshlang'ich ta'limda ona tili va uni
o'qitish metodikasi" kafedrası o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14636494>

Annotatsiya. Mazkur maqolada PIRLS xalqaro tadqiqotida boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasi va sifati taqqoslanadi. Shuningdek Respublikada amalga oshirilayotgan islohatlar va o'quvchilarning o'qish savodxonligini aniqlashga qaratilgan metodik tavsiyalar keltirilgan. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni metodik tayyorgarligini samaradorligini oshirish uchun qanday chora tadbirlar qo'llash kerakligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Evropa davlatlari, xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ta'lim siyosati, PIRLS, xalqaro standartlar, raqamli format, ochiq turdagi topshiriqlar tizimi.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОЦЕНОЧНЫХ ПРОГРАММ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ РОДНОМУ ЯЗЫКУ И ЧТЕНИЮ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ КАК СОЦИАЛЬНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ

Авазова Дурдона Эркиновна

Преподаватель кафедры "родной язык и методика его преподавания в начальном образовании" факультета начального образования ТГПУ им. Низами

Аннотация: В этой статье сравнивается уровень и качество понимания текста учащимися начальной школы в международном исследовании PIRLS. Также представлены проводимые в республике реформы и методические рекомендации, направленные на выявление читательской грамотности учащихся. Освещается, какие меры следует применять для повышения эффективности методической подготовки будущих учителей начальных классов.

Ключевые слова: Европейские государства, иностранные организации, агентства, образовательная политика, PIRLS, международные стандарты, цифровой формат, система заданий открытого типа.

THE USE OF INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS IN THE PROCESS OF TEACHING PRIMARY SCHOOL MOTHER TONGUE AND READING LITERACY AS A SOCIAL NECESSITY

Avazova Durdona Erkinovna

Teacher of the Department "native language in primary education and methodology of its teaching" tdpu Faculty of Primary Education named after Nizami

Annotation: in this article, the PIRLS international study compares the level and quality of understanding of Primary School students by reading the text. Also presented are reforms carried out in the Republic and methodological recommendations aimed at determining the literacy of students. What measures should be applied to improve the effectiveness of methodological training of future primary school teachers.

Keywords: European countries, foreign organizations, agencies, education policy, PIRLS, international standards, digital format, Open type assignment system.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarida malaka kadrlar va yetuk mutaxassislariga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidar o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasiga har tomonlama e'tiborni kuchaytiradi. Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarni ijodiy g'oyalari va yaratuvchanligin har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish borasida ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, milliy monitoring tizimini ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida takomillashtirish, shu yo'lida xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish borasidagi amalga oshirilayotgan ishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qaroriga asosan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi. Ta'lim siyosatini ishlab chiqish jarayonida xalqaro standartlashtirilgan baholash darajalari milliy va xalqaro miqyosda tobora ko'proq qo'llanilmoqda.

Xalqaro miqyosda muntazam baholash orqali ta'lim tizimi milliy monitoring tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlarni yanada kengroq kontekstda yaratish maqsadida o'zaro kelishuvga asosan, ushbu g'oya taklif etilgan. 1990-yillarga qadar Evropa davlatlarining aksariyatlari ta'lim oluvchilarning egallagan bilim va ko'nikmalarini monitoring qilishda milliy testlardan foydalanganlar. 1990-yillarda esa, o'nta mamlakat standartlashtirilgan baholashni joriy qildilar va 2000-yillarning boshidan beri yana mamlakat shu usulni qo'lladilar. 2009-yilga kelib, faqat beshta Yevropa davlatlari ta'lim tizimida o'quvchilarning milliy baholari yo'q edi. Ta'lim siyosati sohasidagi ushbu xalqaro standartlashtirilgan baholarning ta'siri, yaratilish nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega yangi bilim, o'zgarishlar baholash siyosati va milliy ta'lim siyosatiga tashqi ta'sir yanada kengroq bo'ladi. Bu esa Boshlang'ich sinf ona tili o'qish savodxonligi darslarida PIRLS xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning zaruratini oshiradi.

PIRLS boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish daraja baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturidir. Mazkur xalqaro dastur ta'lim sohasi davlat siyosatiga oid ma'lumotlarni taqdim etadigan, boshlang'ich sinf o'quvchilarin o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi axborotla xalqaro miqyosda taqqoslashga imkon beruvchi, o'qish va o'qitish sifatini yaxshila maqsadida tashkil etilgandir. 2016-yildan boshlab qo'shimcha tanlov asosida PIRI tizimi joriy qilingan bo'lib, u o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholashga mo'ljallangan. Shuningdek, PIRLS dasturi o'quvchilar tomonidan maktabda maktabdan tashqari ta'lim olishning katta qismini tashkil etgan, ya'ni badiiy tajn orttirish, axborot olish va undan foydalanish ko'nikmalarini baholash kabi ikkita keng qamrovli maqsadlarni ifodalaydi.

2021-yilda o'tkaziladigan tadqiqotda o'quvchilarga birinchi marta raqam formatdagi topshiriqlarni taqdim etish rejalashtirilganligini buning yaqqol dalilid Raqamli formatga o'tish bilan birga, internet muhitida boshqariladigan PIRLS onlay o'qishni kompyuterda baholash kabi o'zgarishlar ko'zda tutilgan. Davlatlar PIRUS xalqaro dasturidan quyidagi maqsadlarda foydalanadilar: global miqyosida ta'lim tizim darajasidagi yutuqlarning tendentsiyalarini kuzatib borish, yangi yoki qayta ko'chirilgan ta'lim siyosatining ta'sirini kuzatib borish, ta'limning zaif

nuqtalari belgilash va o'quv islohotini amalga oshirish, PIRLS ma'lumotlarini tadbiq qilish orqali o'qitish va o'qishni takomillashtiriladi.

Dunyoda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv yutuqlarini xalqaro baholash tizimlaridan biri matnni o'qish va tushunish sifatini xalqaro tadqiqoti PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) hisoblanadi. Mazkur tadqiqot dunyoning turli davlatlaridagi boshlang'ich sinf o'quvchilarining turli matnlarni o'qish va tushunish darajasini baholash va taqqoslash hamda milliy tizimlarning o'ziga xos xususiyatlaridagi tafovut va farqlarni aniqlash imkonini bergan. Mazkur tadqiqotda boshlang'ich ta'lim 4-sinf o'quvchilarining o'qish va matnni tushunish darajalari baholanadi. Tadqiqotda ishtirok etadigan maktablar ikkita parallel sinfi bo'lgan umumiy maktablar orasidan maxsus metodologiya asosida kompyuter yordamida tasodifiy tanlanadi.

PIRLS kabi xalqaro tadqiqotlarga qo'yilgan eng muhim talablardan biri qiyosiy tahlil qilish imkonini beradigan topshiriqlardan foydalanish hisoblanadi. Shu sababli topshiriqlarni shakllantirish jarayonida o'tgan yillarda foydalanilgan nazorat materiallari blokidan foydalanilgan. Shuningdek, asosiy e'tibor tadqiqot jarayonini standartlashtirishga qaratiladi. Shu sababli PIRLS tadqiqoti qat'iy belgilangan yagona instruktsiya asosida amalga oshiriladi. Bu jarayoni xalqaro koordinatsiya markazi nazoratida amalga oshirilib, tadqiqotning har bir bosqichi maktablarni tanlash, mavzularni tanlash, moslashtirish va tarjima qilish, testlarni o'tkazish, natijalarni

PIRLS kabi xalqaro tadqiqotlarga qo'yilgan eng muhim talablardan biri qiyosiy tahlil qilish imkonini beradigan topshiriqlardan foydalanish hisoblanadi. Shu sababli topshiriqlarni shakllantirish jarayonida o'tgan yillarda foydalanilgan nazorat materiallari blokidan foydalanilgan. Shuningdek, asosiy e'tibor tadqiqot jarayonini standartlashtirishga qaratiladi. Shu sababli PIRLS tadqiqoti qat'iy belgilangan yagona instruktsiya asosida amalga oshiriladi. Bu jarayoni xalqaro koordinatsiya markazi nazoratida amalga oshirilib, tadqiqotning har bir bosqichi maktablarni tanlash, mavzularni tanlash, moslashtirish va tarjima qilish, testlarni o'tkazish, natijalarni tekshirish jarayoni xalqaro ekspertlar tomonidan to'liq nazorat qilinadi. Tarjina tekshirilib, maktablarda xalqaro kuzatuvchilar ishtirok etadilar. Ochiq turdagi naz topshiriqlari ekspert o'qituvchilar tomonidan tekshirilgandan so'ng, yana bos mutaxassislarini jalb etib, qayta tekshirib, natijalar taqqoslab ko'riladi.

Maktab o'quvchilarini tafakkur sa'y- harakatlariga o'rgatishda ikkita faoliyatli o'qitish nazariyasi keng qo'llanishga ega bo'ladi: maktab o'quvchilarini intellektual salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish nazariyasini ishlab chiqadi. Bu nazariyaning bosh g'oyasi bilimlarni o'zlashtirish o'quvchilar tomonidan faqat ma'lum sa'y-harakatlar tizimi bajarilishi natijasida yuzaga keladi. Ikkinchisi esa, sa'y-harakat o'z ustida bajarilayotgan predmet bilan funktsional bog'langan, o'z ichiga mazkur predmetni o'zgartirish maqsadini va bunday o'zgartirish vositasini oladi. Bularning barchasi birgalikda shakllantirilayotgan sa'y-harakatning ijro qismini tashkil etadi. Demak, o'quvchilarda oddiy xulosalar bilan birga, matndagi g'oyalar va axborotlarni talqin qilish, uyg'unlashtirish, bog'lay olish ko'nikmalari rivojlanib boradi degan xulosaga kelish mumkin.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-

son Farmoni. [71,72] 1

2. Ismailov A.A., O'quvchilarning ta'limdagi yutuqlarini baholash tizimini xalqaro talablar asosida takomillashtirishning nazariy va institusional asoslari, Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar [2022 yil № 2], DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.28.34.014>
3. TALIS – The OECD Teaching and Learning International Survey [Elektron manba] // OECD. – Kirish rejimi: www.oecd.org/education/talis
4. OECD [Elektron resurs, manba]. – Kirish rejimi: [https:// www.oecd.org](https://www.oecd.org). Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti [ingliz tilida: The Organisation for Economic Co-operation and Development [OECD].
5. Radjiyev A., Karimov F., Ibragimov A., Axmedov M. TALIS-2018 Xalqaro tadqiqotlar talablari asosida o'tkazilgan so'rovnoma va tadqiqotning hisoboti. Toshkent-2021
6. Anders Y., Rossbach H.G., Weinert S., Ebert S., Kuger S., Lehrl S., va J. Von Maurice. Home and preschool learning environments and their relations to the development of early numeracy skills. *Early Childhood Research Quarterly*, 27[2], 2012.378B
7. Sh.U.Sariyev. Boshlang 'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda folklor namunalarining ahamiyati // PEDAGOGS, 2023/6/22. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=LrrORX0AAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=LrrORX0AAAAJ:bz8QjSJIRt4C
8. Avazova, D., & Tojimatova, S. (2024). IDENTIFYING HIDDEN TALENTS AND ABILITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 3(5), 26-29.
9. Bakiyeva Xilola.ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 1 | ISSUE 3 | 2020